

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TABIIY FANLAR FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH

Boxodirova Barchinoy

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs 2-22-guruh talabasi

Barchinoyboxodirova2@gmail.com

Alimardonova Mo'tabar

O'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar fanidan sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati haqida so'z boradi. Bundan tashqari boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarda qo'llash mumkin bo'lgan tajribalarga misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy fan, to'garak, dars, tajriba, o'simliklar, kuzatuv daftari, yorug'lik, havo, suv.

Аннотация: В данной статье рассказывается о значении внеурочной деятельности по естественным наукам в начальном образовании. Кроме того, приведены примеры экспериментов, которые можно использовать на уроках природоведения в начальных классах.

Ключевые слова: естественные науке, кружок, урок, эксперимент, растение, дневник наблюдений, свет, воздух, вода.

Abstract: This article discusses the importance of extracurricular activities in natural sciences in primary education. Additionally, it provides examples of experiments that can be used in primary school science lessons.

Keywords: Natural science, club, lesson, experiment, plant, observation notebook, light, air, water.

Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish haqida so'z borar ekan birinchi navbatda sinfdan tashqari ishlar nima ekanligini aytib o'tishimiz darkor. Sinfdan tashqari ish — bu maktab dars jadvalidan tashqarida o'tkaziladigan ta'limiy va ijodiy faoliyatdir. Bu ish o'quvchilarning bilimini mustahkamlash, qiziqishlarini rivojlantirish va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlardan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va

amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday ishlarni samarali tashkil etish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish muhim:

1. To'garaklar

"Yosh tabiatshunoslar" – o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish, tajribalar o'tkazish. "Eko-do'stlar" – atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha loyihalar tashkil etish. "Ixtirochilar burchagi" – oddiy ilmiy tajribalarni o'tkazish va texnologik loyihalar yaratish.

2. Ekskursiyalar va sayohatlar

Botanika bog'lari, hayvonot bog'lari, tabiat qo'riqxonalari va ekologik markazlarga tashriflar. Ochiq havoda kuzatishlar: qushlarni, o'simliklarni va ob-havo hodisalarini o'rganish.

3. Tajribalar va amaliy mashg'ulotlar

O'quvchilarga tabiiy fanlardan oddiy laboratoriya tajribalarini bajarish imkoniyatini yaratish. Suv, tuproq, havo bilan bog'liq oddiy ilmiy tajribalarni o'tkazish.

4. Tanlov va viktorinalar

"Eng yaxshi yosh tadqiqotchi" tanlovi. "Tabiat sirlarini bilasizmi?" viktorinalari. Rasmlar, qo'l mehnati va maketlar ko'rgazmalari.

5. Loyihalar va tadqiqot ishlari

"Mening tabiat kundaligim" – bolalar o'z kuzatishlarini qayd qilishadi. Mahalliy ekologik muammolarni o'rganish va ularni hal qilish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash. O'quvchilar oilalari bilan bog'liq ekologik loyihalar ishlab chiqish.

Bu tadbirlar o'quvchilarni tabiatni sevishtirishga, tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga va ekologik madaniyatni shakllantirishga yordam beradi.

"Tabiat mo'jizalari" nomli to'garak Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar faniga juda mos keladi. Ushbu to'garak 2-4-sinflar uchun mos hisoblanadi. Haftada bir marta o'tkazish tavsiya etiladi. Umumiy maqsad— o'quvchilarning tabiatga qiziqishini oshirish, kuzatuvchanligini rivojlantirish, amaliy tajribalar orqali tabiiy fanlarga bo'lgan bilimlarni mustahkamlashdan iboratdir. Ushbu to'garak jarayonida o'quvchilarning o'zlari ixtirochiga aylanadilar. Ular tabiat qo'ynidagi keraksiz, chiqindi narsalarni kerakli narsalarga aylantirishni o'rganadilar. Plastik idishlardan gullar yasash mumkin ekanligini ushbu jarayonga misol keltirish mumkin. Bundan tashqari tabiatga zarar berayotgan narsalarni foydalisiga almashtirish ham bunga misol bo'la oladi. Jumladan samodan paketlar o'rniga qog'oz paketlarni qo'llash tabiatga bir muncha foyda keltiradi.

"O'simliklar hayoti" nomli to'garak esa o'quvchilarda yashil tabiatga mehr uyg'otadi deyishimiz mumkin. Darsning maqsadi quyidagicha: o'quvchilarni o'simliklarning o'sish sharoitlari bilan tanishtirish, o'simliklarning hayotiy jarayonlarini kuzatish va ularga ta'sir qiluvchi omillarni tushuntirish, amaliy tajribalar yordamida o'simlik haqida chuqurroq bilib berish. Kerakli jihozlar quyidagilar: turli xil urug'lar, idishlar yoki plastik stakanlar,

tuproq, suv, kundalik kuzatuv daftari. Darsning boshlanishida o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollarga beradi: O'simliklar nima? Ular qanday yashaydi? Shundan so'ng o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga o'simliklarning o'sish bosqichlari haqida tushuntirib beriladi. So'ng o'qituvchi o'quvchilarni tajriba maydoniga chaqiradi. O'quvchilar turli xil urug'larni tuproqqa ekishadi. Bir xil urug'larni har xil sharoitga joylashtiriladi:

1-urug': quyosh va suv bor muhitga

2-urug': faqat suv bor, quyosh nuri yo'q muhitga

3-urug': faqat quyosh bor, suv yo'q muhitga

4-urug': na quyosh va na suv bor muhitga

So'ng o'quvchilar urug'larni kuzatib kuzatuv daftarlariga yozib borishadi. O'quvchilar birinchi urug'ning normal usatkanligini ta'kidlashadi. Ikkinchi va uchunchi urug'larning o'sishi nihoyatda sekin ekanligi ta'kidlab o'tiladi. To'rtinchi urug' esa tezlikda nobud bo'lganligini aytib o'tishadi. O'quvchilar buni kuzatib keladigan so'ng o'qituvchi umumiy xulosani qo'yib beradi. O'simlikning o'sishi uchun nima kerakligi o'quvchilardan so'raladi. Suv va yorug'lik o'simlik hayoti uchun muhim ekanligi tushuntiriladi. Uyga vazifa sifatida esa o'z hovlisida yoki beradida uzunlik ustida kuzatuv daftarga yozib borishlari kerakligi aytib o'tiladi. Bu tugarak jarayonida o'quvchilar o'simliklarning hayotiy jarayonlarni tushunib olishadi, tajribalar orqali o'zlari ilmiy xulosa chiqarishadi, tabiatni asrash va unga g'amxo'rlik qilish hissi shakllanadi.

“Havo bizning do'stimiz” nomli to'garakka diqqat qiladigan bo'lsak, o'quvchilarga tabiiy fan doirasidagi sinfdan tashqari ishlarning ahamiyatini tushunib yetamiz. Ushbu tugating asosiy maqsadi— o'quvchilarga havo tarkibi, uning ko'rinmasligi, lekin mavjudligi haqida tushuncha berish, tajribalar orqali havo bosimi va harakatini o'rganishdan iborat. To'garak mashg'ulotida quyidagi materiallar kerak bo'ladi: sham, shamol o'lchagich, shamchiroq, plastik stakanlar, qog'oz parchalari. Dastlab o'qituvchi o'quvchilarning bilimini bilish uchun quyidagicha savollar berib o'tadi: Havo nima? Biz uni ko'ra olamizmi? Havo bo'lmasa nima bo'ladi? So'ng o'qituvchi havo tarkibi haqida tushuncha beradi, ya'ni kislorod, azot, karbonad angidrid nimaligini tushuntirib beradi. So'ng tajriba asosida havo borligi isbotlaniladi. Tajriba quyidagicha amalga oshiriladi:

1-tajriba: Bo'sh plastik stakanni suvga botirib sekin asta-pastga tushiramiz. Ichkaridagi havo suvni ichkariga kiritmaydi bu havo borligini isbotlaydi.

2-tajriba: Qo'g'oz parchalarni turli joylarda, deraza oldida, xona ichida, tashqarisida ushlab turib, shamolni his qilish. Shamol nima uchun eshitishini tushuntirish, ya'ni havo haroratiga bog'liq ekanligini aytib o'tish zarur. Ushbu tajribadan havo harakatini o'rganishda foydalaniladi.

3-tajriba: Havo bosimini o'rganishda quyidagi tajribadan foydalaniladi: Shamchiroqni yoqib, ustiga stakan yopamiz. Kislorod tugagach, sham o'chadi. Bu havoning muhimligini ko'rsatadi.

Tajribalar natijasida o'quvchilar havoning mavjudligini va ahamiyatni tushunadi. Tajribalar orqali havo bosimi, harakati va tarkibini amalda o'rganishadi, ekologik ong va atrof muhitga nisbatan mas'uliyat shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar fanidan sinfdan tashqari ishlar dars jarayonini to'ldirib, o'quvchilarga tabiat hodisalari, o'simlik va hayvonot dunyosi, ekologik muammolar haqida kengroq tushuncha hosil qilish imkonini beradi. Sinfdan tashqari ishlarda to'garaklar, ekskursiyalar, tajribalar, qiziqarli vektorinalar va loyihalar orqali bolalarning bilishga bo'lgan ishtiyoqi oshadi. Umuman olganda tabiiy fanlardan sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning kuzatuvchanligi, ijodiy fikrlashi va mustaqil o'rganish qobiliyatini shakllantirib, ularning kelajakda ilm- fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Baxronov A. "Tabiatshunoslik": 3-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. – Toshkent: "Cho'lpon" NMIU, 2012.
2. Baxronov A. "Tabiatshunoslik": 4-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. – Toshkent: "Sharq" NMIU, 2011.
3. Djumayeva M. "Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida amaliy ishlarni tashkil etishning metodik asoslari" // "International Conference on Multidisciplinary Science" 2024.
4. Isayeva N.R. "Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarini o'tishda amaliy ishlarni tashkil qilish" // "Ijodkor O'qituvchi" 2023.
5. Nuriddinova M. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi". – Toshkent: "O'qituvchi" 2005.
6. Rahmatullayeva S.S. "Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi va uni takomillashtirish" // Tadqiqotlar.uz, 2024.
7. Sayfullayev G.M. "Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish" – Buxoro, 2020.
8. Sharipova D., Xodiyeva D.P., Shirinov M.K. "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi" – Toshkent: Barkamol Fayzulla Media, 2018.
9. Suyarov K.T., Tillayeva Z.Y., Sangirova Z.B., va boshqalar. "Tabiiy fanlar: 1-sinf uchun darslik". – Toshkent, 2020.
10. Suyarov K.T., Tillayeva Z.Y., Sangirova Z.B., va boshqalar. "Tabiiy fanlar: 2-sinf uchun darslik" – Toshkent, 2020.